

Xitoy Fanlar akademiyasi delegatsiyasi tashrifi

Xitoy Xalq Respublikasi “Bir makon – bir yo‘l” dasturiga muvofiq investitsiya kiritib, Toshkent shahrida zamonaviy ilmiy-tatqiqot va amaliy ishlar bo‘yicha dori ishlab chiqarish markazi tashkil etgan edi. 2018-yil 23-noyabr kuni ushbu Markazning ochilishiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Xitoy Fanlar akademiyasi prezidenti Bay Chunli boshchiligidagi delegatsiya ham ishtirok etdi. Mehmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bexzod Yuldashev kutib oldi.



Ushbu Markazning maqsadi O‘zbekistonning yetakchi ilmiy muassasalari bilan ilmiy hamkorlikda yangi, yuqori samarali dori vositalarini yaratish, ishlab-chiqarish va aholiga yuqori darajada tibbiy va diagnostik xizmat ko‘rsatishdir. Shuningdek, mazkur jarayonga yoshlarni jalb etib, ularning malakasini oshirish orqali fan-ta‘lim va ishlab-chiqarishning o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash natijasida yaxlit ilmiy klaster yaratiladi.



Markazning tantanali ochilish marosimidan so'ng mehmonlar O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga ham tashrif buyurishdi. Bu yerda O'zR FA ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, yetakchi olimlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv jarayonida ikki davlat Fanlar akademiyalari o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan Kelishuv qayta imzolandi.



So'ngra, mehmonlar Institutda saqlanayotgan eng noyob yozma yodgorliklar bilan tanishdi. Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bay Chunli bugungi samimiy uchrashuv uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi.

